XIZMATLAR SOHASIDA XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI

Urunbayeva Yulduz Pirnazarovna
SamISI v.b.prof
E-mail: ulduzurunbaeva75@gmail.com.
Xabibullayev Bekzod Botirovich
SamISI Iqtisodiyot fakulteti talabasi
E-mail: shaxnozaobloqulova19@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xizmatlar sohasida xufyona iqtisodiyotni qisqartirishning institutsional asoslari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari tahlil qilingan. Xufyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablari, uning davlat budjeti, tadbirkorlik faoliyati va raqobat muhitiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, norasmiy iqtisodiyot ulushini kamaytirishda soliq ma’murchiligini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishning ahamiyati asoslangan. Tadqiqot yakunida xizmatlar sohasida iqtisodiy faoliyat shaffofligini oshirish va qulay institutsional muhitni shakllantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *xizmatlar sohasi, xufyona iqtisodiyot, institutsional asoslar, iqtisodiy samaradorlik, norasmiy iqtisodiyot, soliq ma’murchiligi, raqamlashtirish, tadbirkorlik, norasmiy bandlik.*

KIRISH

Bugungi kunda xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va aholi turmush darajasini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Savdo, transport, turizm, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmatlar va boshqa yo‘nalishlarning rivojlanishi iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Biroq ushbu sohada daromadlarni yashirish, norasmiy bandlik, xizmatlarni rasmiy hisobga olmaslik hamda soliq majburiyatlarini to‘liq bajarmaslik kabi holatlar xufyona iqtisodiyotning saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa davlat budjeti daromadlarining kamayishi, sog‘lom raqobat muhitining buzilishi va iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Xizmatlar sohasida xufyona iqtisodiyotni qisqartirishning dolzarbligi, avvalo, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari bilan belgilanadi. Norasmiy faoliyat yurituvchi subyektlar tomonidan daromadlarning yashirilishi rasmiy statistika ma’lumotlarining to‘liqligiga ta’sir ko‘rsatadi, xodimlarning mehnat va ijtimoiy himoya kafolatlarini cheklaydi hamda qonuniy faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun teng bo‘lmagan raqobat sharoitlarini yuzaga keltiradi. Shu sababli mazkur muammoni faqat soliq nazoratini kuchaytirish orqali emas, balki huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish orqali hal etish zarur. Ayniqsa, institutsional yondashuv asosida rasmiy faoliyat yuritishni soddalashtirish,

ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish va tadbirkorlarning iqtisodiy manfaatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, Prezidentning 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son[1] “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni yashirin iqtisodiy aylanmalarni kamaytirish, soliq ma’murchiligini takomillashtirish va tadbirkorlar uchun teng raqobat sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Shuningdek, Prezidentning 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son[2] “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq vazifalarni belgilaydi. 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son[3] “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori esa raqamli xizmatlarni kengaytirish va ma’muriy jarayonlarni soddalashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son[4] “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmon iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik muhitini takomillashtirishning uzoq muddatli ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi. Mazkur hujjatlarning mazmuni xizmatlar sohasida rasmiy iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, raqamli nazorat vositalaridan foydalanish va tadbirkorlik uchun qulay institutsional muhit yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu chora-tadbirlarning samaradorligi ularning amaliy ijrosi, davlat organlari faoliyatining muvofiqligi va tadbirkorlarning qonuniy faoliyat yuritishga bo‘lgan rag‘batlariga bog‘liq. Shu jihatdan elektron to‘lovlar, onlayn nazorat-kassa texnikasi, elektron hisobvaraq-fakturalar va mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish kabi vositalarni takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, xizmatlar sohasida xufyona iqtisodiyotni qisqartirishning institutsional asoslarini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llarini aniqlash mazkur tadqiqotning asosiy yo‘nalishini tashkil etadi. Ushbu masalani o‘rganish orqali rasmiy iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish, raqobat muhitini yaxshilash va xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xizmatlar sohasida xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari mahalliy olimlarning ilmiy maqolalarida turli jihatlardan o‘rganilgan. Xususan, tadqiqotlarda yashirin iqtisodiyotning kelib chiqish sabablari, uning davlat budjeti va mehnat bozoriga ta’siri, raqamlashtirishning ahamiyati hamda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratilgan.

[1] https://lex.uz/docs/-5073459 sayti
[2] https://lex.uz/uz/docs/-5840284 sayti
[3] https://lex.uz/uz/docs/-6472548 sayti
[4] https://lex.uz/ru/docs/-6600413 sayti

A.Bobojonovning “O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot darajasini qisqartirishda samarali yondoshuv” nomli maqolasida yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda iqtisodiyotni raqamlashtirish, nazorat choralarini takomillashtirish va tadbirkorlarning rasmiy iqtisodiyotdagi ishtirokini rag‘batlantirish masalalari yoritilgan. Muallifning yondashuvi xizmatlar sohasida iqtisodiy operatsiyalar shaffofligini oshirish va norasmiy faoliyatni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

A.Koshanovning “O‘zbekistonda xufiyona iqtisodiyotning statistik tahlili” maqolasida yashirin iqtisodiyot ko‘lamini baholash, uning shakllanish omillari va norasmiy sektorning iqtisodiy jarayonlarga ta’siri statistik usullar asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda soliq yuki, bandlik va iqtisodiyotni raqamlashtirish bilan bog‘liq omillarga e’tibor qaratilib, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

N.Turopova va G. Tairovaning “O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning jamiyatga ta’siri” maqolasida yashirin iqtisodiyotning davlat daromadlari, mehnat bozori, tadbirkorlar va iste’molchilar faoliyatiga ta’siri tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot xufyona iqtisodiyotni qisqartirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ochib berishi bilan ajralib turadi.

S. B. Pirnafasovning “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha iqtisodiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish” maqolasida davlat siyosati, iqtisodiy rag‘batlar va institutsional mexanizmlarning yashirin iqtisodiyotni kamaytirishdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Mazkur yondashuv tadbirkorlik faoliyatini rasmiylashtirish uchun qulay sharoitlar yaratish hamda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, A.Xasanovning xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslarni boshqarish mexanizmlariga bag‘ishlangan maqolasida resurslardan oqilona foydalanish, raqamlashtirish va innovatsiyalarning korxonalar raqobatbardoshligiga ta’siri yoritilgan. Ushbu tadqiqot xizmatlar sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan kelib chiqadiki, o‘rganilgan ilmiy maqolalarda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, raqamlashtirish, institutsional mexanizmlarni takomillashtirish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Biroq aynan xizmatlar sohasida institutsional omillar, xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va iqtisodiy samaradorlikni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish yanada chuqur tahlilni talab etadi. Mazkur maqolada ushbu masalalarni birgalikda tadqiq etishga e’tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xizmatlar sohasida xufyona iqtisodiyotni qisqartirishning institutsional asoslari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llarini o‘rganishda tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil va ilmiy umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Shuningdek, xufyona iqtisodiyotning shakllanish sabablari hamda uning xizmatlar sohasi rivojlanishiga ta’siri o‘rganildi. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili orqali davlat tomonidan amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning mazmuni baholandi. Tizimli yondashuv asosida soliq ma’murchiligi, raqamlashtirish va tadbirkorlik muhitining o‘zaro bog‘liqligi ko‘rib chiqildi. Mantiqiy tahlil va sintez usullari

yordamida mavjud muammolar umumlashtirildi. Olingan natijalar asosida xufyona iqtisodiyotni qisqartirish hamda xizmatlar sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmatlar sohasida xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Xizmatlar sohasining kengayishi bilan bir qatorda, iqtisodiy faoliyatni rasmiy hisobga olish, soliq majburiyatlarining bajarilishini ta’minlash va mehnat munosabatlarini qonuniylashtirish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xufyona iqtisodiyotning mavjudligi davlat budjeti daromadlariga, tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi raqobatga va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli mazkur muammoni institutsional yondashuv asosida tahlil qilish, uning shakllanish omillarini aniqlash va amaliy yechimlarni ishlab chiqish zarur.

Xufyona iqtisodiyot xizmatlar sohasida, asosan, tushumlarni to‘liq hisobga olmaslik, xizmatlarni ro‘yxatdan o‘tkazmasdan ko‘rsatish, xodimlarni norasmiy ishga jalb etish hamda shartnomaviy munosabatlarni rasmiylashtirmaslik ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Bunday holatlarning yuzaga kelishiga ma’muriy tartib-taomillarning murakkabligi, soliq majburiyatlarini bajarish xarajatlari, moliyaviy savodxonlikning yetarli emasligi va ayrim faoliyat turlarida nazoratning cheklanganligi ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli to‘lov tizimlarining rivojlanishi va davlat xizmatlarining elektron shaklga o‘tkazilishi iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot ko‘lamini baholashda norasmiy iqtisodiy faoliyat va yashirin iqtisodiyotni alohida ko‘rib chiqish muhimdir. Ushbu ko‘rsatkichlar iqtisodiy faoliyatning rasmiy statistikada to‘liq aks etmasligi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning mazmuni va hisoblash usullari farqlanishi mumkin. Shuning uchun statistik ma’lumotlarni tahlil qilishda ko‘rsatkichlarning manbasi, hisoblash metodologiyasi va qamrab olingan iqtisodiy faoliyat turlariga e’tibor berish lozim.

1-jadval. O‘zbekistonda norasmiy iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi, 2020–2024-yillar (foizda)

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Jami iqtisodiyot	30,8	29,7	27,2	26,7	26,5
Xizmatlar sohasi	28,6	27,9	25,0	23,0	24,5
Sanoat	11,7	9,3	7,3	7,5	7,3
Qurilish	27,7	29,1	27,9	28,6	28,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining SIAT rasmiy statistik ma’lumotlari.

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi 2020-yildagi 28,6 foizdan 2023-yilda 23,0 foizgacha kamaygan. Biroq

2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 24,5 foizga ko‘tarilgan. Bu 2023-yilga nisbatan 1,5 foiz bandlik o‘sishni anglatadi. Demak, avvalgi yillarda kuzatilgan pasayish tendensiyasi 2024-yilda davom etmagan. Mazkur holat xizmatlar sohasida iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil davom ettirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, xizmatlar sohasidagi ko‘rsatkichlarni boshqa tarmoqlar bilan taqqoslash institutsional muammolarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, 2024-yilda norasmiy iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi sanoatda 7,3 foizni, qurilishda 28,5 foizni tashkil etgan. Xizmatlar sohasidagi 24,5 foizlik ko‘rsatkich sanoatga nisbatan ancha yuqori bo‘lib, ushbu tarmoqda rasmiy hisob yuritish va iqtisodiy operatsiyalar shaffofligini oshirishga alohida e’tibor qaratish lozimligini anglatadi.

1-diagramma. 2020–2024-yillarda xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiyot ulushining o‘zgarishi




Diagramma ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2020–2024-yillarda jami iqtisodiyotda norasmiy iqtisodiyot ulushi 30,8 foizdan 26,5 foizgacha kamaygan. Xizmatlar sohasida ham 2020–2023-yillarda pasayish kuzatilib, ko‘rsatkich 28,6 foizdan 23,0 foizga tushgan. Biroq 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 24,5 foizga ko‘tarilgan. Bu xizmatlar sohasida iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish jarayonlari barqaror davom etishi uchun qo‘shimcha institutsional choralar zarurligini ko‘rsatadi. Sanoat tarmog‘ida norasmiy iqtisodiyot ulushi ko‘rib chiqilgan davrda 11,7 foizdan 7,3 foizgacha pasaygan. Qurilishda esa ko‘rsatkich 27,7 foizdan 28,5 foizgacha o‘zgargan. Xizmatlar sohasidagi 2024-yilgi 24,5 foizlik ko‘rsatkich sanoat ko‘rsatkichidan ancha yuqori bo‘lib, tarmoqlar o‘rtasida norasmiy iqtisodiyotning tarqalishi bir xil emasligini anglatadi.

Xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiyot ulushining 2024-yilda ko‘tarilishi raqamli hisob-kitoblarni kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini rasmiylashtirish va mehnat munosabatlarini qonuniylashtirish bo‘yicha choralarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq mazkur o‘zgarishning sabablarini faqat jadval asosida aniqlab bo‘lmaydi; buning

uchun tarmoqlar kesimidagi qo‘shimcha statistik ma’lumotlar va hisoblash metodologiyasini ham o‘rganish lozim. Xizmatlar sohasida xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda institutsional omillar muhim o‘rin tutadi. Birinchi navbatda, soliq ma’murchiligini soddalashtirish va tadbirkorlik subyektlari uchun ortiqcha ma’muriy xarajatlarni kamaytirish zarur. Chunki rasmiy faoliyat yuritish jarayonlarining murakkabligi ayrim tadbirkorlarning norasmiy faoliyatda qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois ro‘yxatdan o‘tish, hisobot topshirish va soliq majburiyatlarini bajarish jarayonlarini qulaylashtirish iqtisodiy faoliyatni qonuniylashtirishga yordam beradi.

O‘rganish natijalari xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiyot ulushini kamaytirish uchun huquqiy, iqtisodiy va texnologik mexanizmlarni birgalikda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, rasmiy faoliyat yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish, soliq ma’murchiligini takomillashtirish, raqamli nazoratni kengaytirish va mehnat munosabatlarini qonuniylashtirish asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi. Umuman olganda, xizmatlar sohasida xufyona iqtisodiyotni qisqartirish davlat budjeti daromadlarini oshirish, raqobat muhitini yaxshilash va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Shu sababli institutsional islohotlarning natijadorligini baholashda faqat aniqlangan norasmiy faoliyat hajmiga emas, balki rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan subyektlar soni, qonuniy bandlik, elektron to‘lovlar ulushi va soliq tushumlari dinamikasiga ham e’tibor qaratish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sohasida xufyona iqtisodiyotni qisqartirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, davlat budjeti daromadlarini oshirish va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Xufyona iqtisodiyotning mavjudligi daromadlarning yashirilishi, norasmiy bandlikning kengayishi va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarining cheklanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Tahlil natijalariga ko‘ra, 2020–2023-yillarda xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiyot ulushi 28,6 foizdan 23,0 foizgacha kamaygan bo‘lsa, 2024-yilda 24,5 foizga ko‘tarilgan. Bu holat mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xizmatlar sohasida xufyona iqtisodiyotni qisqartirish uchun, avvalo, soliq ma’murchiligini soddalashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rasmiylashtirish bilan bog‘liq ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish va qonuniy faoliyat yuritishni iqtisodiy jihatdan manfaatli qilish lozim. Shu bilan birga, elektron to‘lovlar, onlayn nazorat-kassa texnikasi va elektron hisobvaraq-fakturalardan foydalanishni kengaytirish iqtisodiy operatsiyalar shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish, ish beruvchilar va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda norasmiy bandlikni kamaytirishga qaratilgan rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, soliq organlari va boshqa davlat tashkilotlari o‘rtasida axborot almashinuvini takomillashtirish, nazorat tadbirlarini xavf darajasiga qarab tashkil etish hamda xizmatlar sohasi bo‘yicha hududiy monitoringni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Kichik biznes subyektlariga raqamli hisob yuritish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatish, rasmiy faoliyat yurituvchi tadbirkorlarni qonunchilik doirasida qo‘llab-quvvatlash va

iqtisodiy operatsiyalarni hisobga olish tizimini takomillashtirish ham xufyona iqtisodiyotni qisqartirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, xizmatlar sohasida xufyona iqtisodiyotni qisqartirishning samaradorligi huquqiy tartibga solish, raqamlashtirish, iqtisodiy rag‘batlantirish va davlat boshqaruvi samaradorligining o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Mazkur yo‘nalishlarda izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish iqtisodiy faoliyatning rasmiylashuvini kengaytirish, davlat budjeti tushumlarini ko‘paytirish, tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida teng raqobat sharoitlarini yaratish va xizmatlar sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] L.Raxmanov, “Xufyona iqtisodiyot va uni qisqartirishning ilmiy tadqiqotlardagi talqinining ilmiy tahlili,” Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, jild 3, № 1, 2025.

[2] I. Bozorov, “Xufyona iqtisodiyot ko‘lamini kamaytirishda soliq siyosati,” Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar, jild 3, № 13, 84–87-betlar, 2024.

[3] A.Koshanov, “O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyotning statistik tahlili,” Muhandislik va iqtisodiyot, jild 3, № 4, 2025.

[4] S.Baxtiyorov, “O‘zbekiston Respublikasida xufyona iqtisodiyotini qisqartirish va mamlakat rivojlanishiga uning ta’siri,” Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, jild 3, № 4, 2025.

[5] R. R.Nazarova va Y. F.Najmiddinov, “Barqaror iqtisodiy rivojlanishda ‘yashirin’ hamda ‘xufyona’ iqtisodiyotni kamaytirish zaruratining empirik tahlili,” Marketing jurnali, № 12, 2025.

[6] R. A. Kalandarov, “Xufyona iqtisodiyotning mohiyati va uni O‘zbekistonda kamaytirish chora-tadbirlari,” Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, jild 4, № 6, 2026.

[7] https://lex.uz/ sayti

[8] https://stat.uz/ sayti